

TOVARSHUNOSLIK EKSPERTIZASI

Muminov Azizbek Yakubaliyevich

*Farg'ona imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun
ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktabi o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ekspertiza (fransuz tilidan espertise, lotin tilidan espertus–tajribali) – mutaxassis - ekspert tomonidan yechimi fan, texnologiya, iqtisodiyot, savdo va boshqa sohalarga doir ijtimoiy bilimlarni talab qiluvchi muammolarning tadqiq etilishidir.*

Kalit so'zlar: *ekspert, ekspertiza, ekspert baholash, tovar ekspertizasi, sanitar-gigiyenik ekspertizasi, veterinar ekspertiza, ekologik ekspertiza*

Kasbiy faoliyat sohalaridan kelib chiqqan holda ekspertizaning quyidagi muhim guruhlari ajratiladi: savdo, tovarshunoslik, texnologik, sud, yuridik, meditsina, buxgalterlik (auditorlik), ekologik va h.k.

Tovar ekspertizasi–ekspert tomonidan tovarning asosiy tavsifini, shuningdek, qarorlarni qabul qilish uchun ularning tovar harakati jarayonidagi o'zgarishlarini baholashdan iboratdir. Tovar ekspertizasi jarayonida tovarning barcha asosiy tavsiflari, ya'ni assortimenti, sifatiy, miqdoriy, qiymat hamda faqatgina qismlari bo'yicha baholanishi mumkin.

Ekspert baholash– tovarlar va boshqa turli ob'ektlarning umumiy va xususiy tavsiflarini tanlash, ularning amaldagi belgilarini aniqlash hamda tovar haqidagi ma'lumotning belgilangan talablariga muvofiqligini ekspert tomonidan tasdiqlanishi bo'yicha amalga oshiriladigan operatsiyalarning yig'indisidir. Ekspert baholashda tovarlar va boshqa turli ob'ektlarning tavsiflariga qo'yiladigan talablar nafaqat me'yoriy hujjatlar asosida, balki ekspertlar tomonidan ham qo'yilishi mumkin. Bunda tovar haqidagi ma'lumot aynan tovar markirovkasi, tovarga qo'shib beriladigan hujjatlar yoki ma'lumotning boshqa manbalari (me'yoriy, texnik hujjatlar, o'quv adabiyotlari, ma'lumotnomalar va h.k.) da mujassamlashtiriladi.

Tovarshunoslik ekspertizasi – tovarlarning organoleptik, fizik-kimyoviy va mikrobiologik ko'rsatkichlari, shuningdek, ekspertlar tomonidan tovar ma'lumotnomasi hamda tovar hujjatlariga asosan o'tkaziladigan so'rovnomalar va tajribalar o'tkazish orqali amalga oshiriladigan miqdoriy tavsif ko'rsatkichlari bo'yicha ularning iste'mol xususiyatlarini baholashdir.

Sanitar-gigiyenik ekspertizasi – sanitar-gigienik xavfsizlikni tekshirish maqsadida ekspertlar tomonidan o'tkaziladigan tovar xossalarning baholanishi.

Veterinar ekspertiza – tovarlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish maqsadida ekspertlar tomonidan o'tkaziladigan veterinar xavfsizlikni baholashdir.

Ekologik ekspertiza – tovarlarning ekologik xossalarni baholash bo'lib, ekspertlar tomonidan ushbu xossalarning atrof-muhitga ta'sirini o'rganish maqsadida o'rganiladi.

Ayrim hollarda yuqorida keltirilgan tovar eksperizasi turlaridan tashqari texnologik va hujjatli ekspertizadan ham foydalaniladi.

Ammo bunday ekspertiza turlari tovar ekspertizasining ma'lum bir qismi sifatida tan olinadi. Gohida ulardan olingan natijalar tovarni umumiy baholash uchun qo'llaniladi.

Tovarshunoslik ekspertizasi tovar ekspertizasining muhim va majburiy turlaridan biri sanaladi. Ekspertizaning boshqa turlari esa uni to'ldiruvchi bo'lib hisoblanadi va har doim ham majburiy ahamiyatga ega bo'lmaydi. Jumladan, veterinar ekspertizasi faqatgina hayvonot olami mahsulotlari, charm va jun xomashyosi uchun majburiydir. Tovarshunoslik ekspertizasining majburiyligi shundaki, uning asosida tovar sifatining organoleptik xossalari va asosiy ko'rsatkichlari yotadi, bu esa o'z navbatida, tovar ekspertizasini tovarning iste'molchi tomonidan baholanishiga olib keladi. Tovarshunoslik ekspertizasi o'z ichiga tovarning barcha asosiy tavsiflarini: assortimenti, sifati, miqdori hamda qiymati kabilarni baholashni oladi. Shu bilan bir qatorda tovarshunoslik ekspertizasining quyidagi turlari farqlanadi: miqdoriy, sifatiy, assortimentli, hujjatli va umumiy.

1. Miqdoriy ekspertiza yuqori darajada ishonchlilikni ta'minlash maqsadida mustaqil ekspertlar tomonidan o'tkaziladi. Ekspertiza natijalari tovarni yetkazib beruvchi tomonidan ham, haridor tomonidan ham tugallangan deb qabul qilinishi lozim. Ekspertizani o'tkazishdan oldin ekspert barcha zaruriy hujjatlar, ya'ni oldi-sotdi shartnomasi yoki tovarni yetkazib berish to'g'risidagi shartnoma, tovarning qo'shimcha hujjatlari va h.k. lar bilan tanishib chiqishi zarur. Qadoqlangan tovarlarning ekspertizasini o'tkazishda ularning miqdoriy tavsifi tovarning massasi (netto), qadog'ining massasi, shuningdek, qadoqlash birliklarining miqdoridan iboratligini ham e'tiborga olish kerak. Shuning uchun tovarning miqdoriy ekspertizasi-da uning brutto, netto hamda tara massalarini hisobga olish lozim. Tovar-larning turli miqdoriy ko'rsatkichlarini aniqlash uchun bevosita va bilvo -sita o'lchash usullaridan foydalaniladi. Bevosita o'lchash usullariga ularni og'irligini, uzunligini, hajmini aniqlash, zichligini va boshqa ko'rsatkich-larini o'lchash kabilar kiradi. Bunda o'lchash uchun turli vositalar qo'llani-ladi. Bilvosita usullar esa, bevosita usullarni qo'llash imkoniyati yo'qligi sharoitida ishlatiladi. O'lchashning bilvosita usullari tovarlarning miqdoriy tavsif ko'rsatkichlarini hisob-kitob yo'li orqali aniqlash usullaridir. Miqdoriy ekspertizani o'tkazish paytida ekspert quyidagi qoidalarga amal qilishi lozim:

- albatta oldindan tovarning hujjatlari bilan tanishib chiqishi;
- tovarning miqdoriy ko'rsatkichlari o'lchash vositalari yoki qayta hisob-kitob qilish yo'li bilan aniqlanadi; o'lchash umumiy yoki xususiy holda bo'lishi mumkin;
- qadoqlangan tovar partiyalari uchun ularning taralari ochib tekshirilganligini aniqlash muhimdir;
- tovar partiyasida qadog'iga zarar yetgan tovarni asosiy tovar partiyasidan ajratib qo'yish; ajratib qo'yilgan tovarning miqdori va sifati alohida tekshiriladi.

2. Sifat ekspertizasi ekspertlar tomonidan tovarning sifatiy tavsifini ularning me'yoriy hujjatlarda keltirilgan talablariga muvofiqligini baholashdan iboratdir. Bunday ekspertiza tovar partiyalarini uzoq muddat saqlanishida, saqlash davomida vujudga kelgan texnologik defektlar paydo bo'lganida tovarning sifatini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Bundan tashqari, sifat ekspertizasi yangi tovar namunasini ko'p partiyada ishlab chiqarishdan oldin tekshirish maqsadida ham qo'llaniladi. Oziq-ovqat mahsulotlarining organoleptik ko'rsatkichlari bo'yicha sifat ekspertizasini o'tkazish degustatsiya deb ataladi.

Qo'llanilishiga ko'ra sifat ekspertizasi qabul qilish bo'yicha, umumiyliги bo'yicha, tovarning yangi turi bo'yicha, oziq-ovqat mahsulotlarining degustatsiyasi bo'yicha hamda shartnoma bo'yicha bo'lishi mumkin.

Tovarni qabul qilish bo'yicha o'tkaziladigan sifat ekspertizasi tovarning hujjatlarida qayd etilgan sifatiga nomuvofiqligi, tovar qadog'ining buzilishi holatlari (sinishi, ezilishi), tovarni transport vositasida yetkazib berish va saqlashda sifati ma'lum darajada pasayganligi aniqlanganda o'tkaziladi.

Tovarlarni umumiyliги bo'yicha o'tkaziladigan ekspertiza tovarning texnik hujjatida ko'rsatilgan elementlarning aynan shu tovarga muvofiqligini ifodalaydi. Komplekt tovarlarning barcha elementlari quyidagi 3 ta guruhga bo'linadi:

- tovarning funksional belgisini, estetik xossalari ta'minlovchi elementlar;
- tovarning ekspluatatsiyasi jarayonida uni ta'mirlash uchun qo'llaniladigan elementlar;
- tovarni yetkazish, saqlash va sotish davrida uni himoyalovchi elementlari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. SHavkat Mirziyoev "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy baxodir" Toshkent – "O'zbekiston"-2020.
2. "O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarini hamda O'zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarish va sotish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" 2003 yil 13 fevral, 75-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori
3. X.T.Muxiddinov. "Tovarshunoslik" KKK uchun o'quv qo'llanma. Toshkent. "Iqtisod-moliya". 2010 yil.
4. M.Mo'minova. Oziq ovqat mahsulotlari tovarshunosligi. KHK uchun o'quv qo'llanma. 2017 yil.
5. Odilzhanovich, T. K., Makhmudovna, N. M., & Odilzhanovich, I. A. (2021). The selection of the control parameter of the raw cotton electric sorter. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(11), 1-5.
6. Odilzhanovich, T. K., Odilzhanovich, I. A., & Makhmudovna, N. M. (2021). Analysis of FLUFF in the Process of Lintering of Seeds. *Central Asian journal of theoretical & applied sciences*, 2(11), 26-28.
7. Ma, W., Yan, B., & Sun, L. (2022). Generative adversarial network-based short sequence machine translation from chinese to english. *Scientific Programming*, 2022.
8. Nabiyeu, K. K., Yakubov, N. J., & Niyazaliyeva, M. M. (2019). Tikuvchilik buyumlarini tikishda ipning ishonchliligini oshirish usullari. *Ilm-fan va ta'lim byulleteni*, (20-3 (74)), 14-16.
9. Niyazaliyeva, M. M., Dadajonov, Sh.D., Oxunbabayev, O. A., & Oxunbabayev, U. O. (2022). JONLI PILLADAN XOM IPAK ISHLAB CHIQRISH, QAYTA OZIQLANTIRISH USULI BO'YICHA JONLI COCOONS GROWN-DAN XOM IPAK ISHLAB CHIQRISH. Professor ve Zotikov tavalludining 135 yilligiga bag'ishlangan

- xalqaro ilmiy konfessiya yakunlari bo'yicha ilmiy ishlar to'plami:(2022 yil 25 may). 2-qism.M.: RGU nomli Kosygina, 2022 yil.171 s., 91.
- 10.Makhmudovna, N. M., & Dadajonovich, D. S. (2023). An Innovative Method of Storing Live Cocoons and its Impact on the Quality and Technological Indicators of Live Cocoons. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 20, 12-17.
- 11.Makhmudovna, N. M., Muhammadkarim, M., & Oxunjonovich, A. U. (2021). IMPROVEMENT OF THE RECYCLINGPROCESS OF COCOONS RECEIVED FROM THE REPEAT FEEDING. *湖南大学学报 (自然科学版)*, 48(12).
12. Toshbekov, O. A., Urozov, M. K., Baymurova, N. R., & Hamrayeva, M. F. (2022). Processes of bleaching and discolouring of wool fibers. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(06), 231-235.
13. Rahimovna, B. N. (2023). DUAL TA'LIMI ASOSIDA TALABALAR KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH. *PEDAGOG*, 6(12), 11-14.
- 14.Mukumova, F., & Baymurova, N. (2023). TEACHING STUDENTS THE ART OF EMBROIDERY AND ARTISTIC WEAVING IN EXTRACURRICULAR ACTIVITIES. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(12), 64-67.
15. Rakhimovna, B. N., & Kudratovna, M. N. (2022). CREATION OF METHODS OF MAKING NATIONAL JEWELRY IN SURKHANDARYA COSTUME. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 13.
16. Rakhimovna, B. N. (2024). INTEGRATION OF THEORY AND PRACTICE OF THE DUAL EDUCATION SYSTEM IN THE FIELD OF LIGHT INDUSTRY EDUCATION. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 4(02), 336-341.
17. Baymurova N. R., & Toxirova A. Sh. (2022). ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA YANGI TEXNOLOGIK JARAYONLARDAN FOYDALANISH ORQALI MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH. *Iqtisodiyot va jamiyat*, (10-1 (101)), 264-267.
- 18.Amanturdiyevna, R. D., Xudoyqulovna, M. F., Salimovna, D. Y., Akmalovich, K. S., & Nuritdinovich, C. N. (2022). METHODOLOGY OF FORMING ENGINEERING COMPETENCIES IN STUDENTS BASED ON INNOVATIVE APPROACH (IN THE EXAMPLE OF THE EDUCATIONAL DIRECTION OF CONSTRUCTION AND TECHNOLOGY OF LIGHT INDUSTRIAL PRODUCTS (SEWING PRODUCTS)). *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 3898-3901.
- 19..Dilafruz, R. (2023, March). BO'LAJAK MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA INNOVATSION YONDASHUVNING AHAMIYATI. In *E Conference Zone* (pp. 11-14).
- 20.Dilafruz, R. (2024). PECULIARITIES OF DEVELOPMENT OF METHODOLOGICAL COMPETENCE OF STUDENTS IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL EDUCATION. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 4(01), 139-142.
21. Amanturdiyevna, R. D. Z. (2023). INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING MUHANDISLIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI.

- PEDAGOG, 6(12), 7-10.
22. Amanturdiyevna, R. D. (2022). Innovative Approaches and Their Future Muhmainly the Importance of Andi Ready. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 1(9), 1-4.
23. Radjapova, D. A. (2022). Professional activity and development stages of engineers in the world education system.
24. Radjapova, D. A., Raximkulova, S. A., Boltayeva, I. B., & Urozov, M. K. (2021). Study of Modern Technologies of Sewing Manufacturing. *International Journal on Orange Technologies*, 3(11), 85-86.